

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№3

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, mart.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNINI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNINI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELINI	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakhmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	
MEHNAT XARAJATLARI HISOBI: NAZARIY ASOSLAR, USULLAR VA BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI.....	126
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
KORPORATIV XIZMATLARNING BANK FOYDASIGA TA'SIRI: KOMISSION VA FOIZLI DAROMADLAR TAHLILI	131
Qurbonov Abror Abdullayevich	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILY MEXANIZMLARI.....	136
Djamalov G'ofir Oribjanovich	
OCHIQLIK INDEKSI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH SAMARADORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING INSTITUTSIONAL TAHLILI	144
Diilshod Pulatov, Uchqun Abdug'aniyev	
DUNYO SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIVAVIY HOLATI VA NATIJALARI TAHLILI.....	153
Alimov Baxodir Batirovich	
QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	160
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
QURILISH TASHKILOTLARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION USULLARI	164
Muxibova Guli Yarkinovna, Sharifxodjayeva Odina Ulug'bek qizi	
AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRINI BAHOLASH	168
Pirmedova Xayitgul Muxammedovna	
IJTIMOYIY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEXANIZMLARI: XALQARO TAJRIBA VA INSTITUSIONAL YONDASHUVLAR.....	173
Bafoyev Farrux Jo'raqulovich	
KORXONALARDA AI-DRIVEN "DECISION SUPPORT SYSTEMS" (DSS)NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	181
Mardanova Ra'no	
STRENGTHENING THE FINANCING OF FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN THROUGH BANK CREDIT	186
Baymuratova Zina Aqilbekovna, Ibadullaeva Asal Ulugbek qizi	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA DAVLAT BOSHQARUV TIZIMLARINI RAQAMLASHTIRISH	192
Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
ATTRACTING INVESTMENTS FROM FINANCIAL MARKETS AND FACTORS INFLUENCING THE INCREASE OF THEIR ATTRACTIVENESS	196
Kholov Sherali Akhrorboyevich	
MARKAZIY OSIYODA TRANSCHEGARAVIY SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA ADOLATLI TAQSIMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	200
Matkarimov Mansur	
XALQARO XIZMATLAR SAVDOSIDA TIBBIY TURIZMNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	206
Farxodova Shohnoz Umidbek qizi	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI	213
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
SANOAT KORXONALARINI IQTISODIY FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	219
Tillayeva Barno Ramiztdinovna	
NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK HISOBOTLARINING O'ZIGA XOSLIGI.....	224
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich	



ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ РЕИНТЕГРАЦИИ ВОЗВРАЩАЮЩИХСЯ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ: МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА И ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ КЫРГЫЗСТАНА.....	230
<i>Амантурова Дилбара Кыдыкбековна</i>	
РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКИ В ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКЕ ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОФИЛЯ.....	237
<i>Асрарова М.У.</i>	
О СКОРИНГОВЫХ МЕТОДАХ ЭКСПРЕСС-АНАЛИЗА ДОХОДНОСТИ АКЦИЙ УЗБЕКСКИХ ЭМИТЕНТОВ.....	242
<i>Ирмухамедова Муслима Дилшодовна</i>	
UY-JOY QURILISHIDA ESKROU MEKANIZMLARINI JORIY ETISH ORQALI INVESTITSION XAVFSIZLIK VA MOLIVAVIY SHAFFOFLIKNI TA'MINLASH	247
<i>Karimov Inomjon Ortikbaevich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MASALALARI	254
<i>Kamoliddinov Ilhomjon Muxammadjonovich, Kobilov Murod Vakkosovich</i>	
TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIVAVIY BARQARORLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	259
<i>Axmedov Toxirjon Xasanjon o'g'li</i>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ENERGETIKA VA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINING ROLI	264
<i>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS-NAZORAT TIZIMI ORQALI RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISH	270
<i>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</i>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ БАНКОВСКИМИ РИСКАМИ И СТРАХОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКИНГА В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....	275
<i>Бахтиёров Худайберган Хамдам угли</i>	
DOIMIY BO'LMAGAN KUCH TA'SIRIDA DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ MODEL ISHLAB CHIQRISH VA SONLI TAHLIL QILISH.....	282
<i>Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Isomova Sabohat Islom qizi</i>	
YOUTH ENTREPRENEURSHIP AS A FACTOR OF STRUCTURAL ECONOMIC TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN.....	290
<i>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</i>	
МОДЕЛИРОВАНИЕ САМОВОЗБУЖДЕНИЕ НЕЯВНОПОЛЮСНОГО СИНХРОННОГО ГЕНЕРАТОРА ПРОДОЛЬНО-ПОПЕРЕЧНОГО ВОЗБУЖДЕНИЯ	298
<i>Пирматов Нурали Бердиёрович, Бекишев Аллаберген Ергашевич, Бердиёров Улугбек Нурали угли, Бердиёров Улмасбек Нурали угли</i>	
YURTIMIZDAGI EKOLOGIK SOF YOG'OCH MATERIALLARIDAN TAYYORLANGAN ORAYOMA KONSTRUKSIYALARINING CHO'ZILISHGA QARSHILIGI	305
<i>Yunusaliyev Elmurod Muhammadyaqubovich, Toshpulatov Ilhomjon Baxtiyorovich</i>	
AYDAR-ARNASOY KO'LLAR TIZIMINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLARI	311
<i>Aminov Hamza Husanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich, Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi</i>	
EXPLAINABLE AI YORDAMIDA SOC UCHUN TUSHUNTIRILADIGAN KIBERXAVF ANIQLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQRISH	318
<i>N.N. Jo'rayev, A.Sh. Juraboyev</i>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK MODULLARINI SUV YORDAMIDA TOZALASH VA SOVITISH USULLARI TAHLILI	324
<i>Ibragimov Umidjon Hikmatullayevich, Qodirov Jobir Ro'zimatovich, Izomov Shahzod Niyoz o'g'li, To'yurodov Quvonchbek Sherzod o'g'li</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING QURILISH SOHASIGA INTEGRATSIYASI: ILG'OR XALQARO TAJRIBA	332
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
ФАКТОРЫ НАЛОГОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОБИРАЕМОСТЬ НАЛОГОВ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ	339
Хакимова Ситора Ильёсжон кизи, Муталова Дилором Махамаджановна	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ЭКСПЕРТНОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ	345
Л.А. Кадырова, Б. Н. Эгамов	
О'ЗБЕКISTON RESPUBLIKASIDA SUG'URTA BOZORINING TUZILISHI TAHLILI	350
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
MINTAQALARDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH MASALALARI	358
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
KONTEYNERLI TASHUVLARNING JORIY HOLATI, MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	366
Samatov G'affor Alloqulovich, Xolmatov Bekzod Nurmatovich, Toxirov Maxmudjon Murodjon o'g'li, Absattarov Isomiddin Xotam o'g'li	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI BO'YICHA NOMUVOFIQLIKNI ANIQLASH VA BARTARAF ETISH MEXANIZMI	381
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR	386
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliiddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
SIFATLI TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH VA AHOLIGA QAMROVNI TA'MINLASHDA BOSHQARUV QARORLARINING AHAMIYATI	391
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARIDA GIPERPARAMETRLARNI MATEMATIK OPTIMALLASHTIRISH USULLARI	396
Husan Arziqulov Normurod o'g'li	
ENHANCING THE SERVICE SECTOR AS A MEANS OF CREATING EMPLOYMENT IN TOURISM INFRASTRUCTURE	401
Zarikeev Rasul Polatovich	
EXPANDING BANK CREDIT OPPORTUNITIES FOR FAMILY-OWNED ENTERPRISES IN UZBEKISTAN	406
Isakov Janabay Yakipbaevich	
BANKS' BROKERAGE AND ADVISORY SERVICES IN FACILITATING SECURITIES TRANSACTIONS AND IMPROVING MARKET LIQUIDITY	412
Isakov Isobek Janabay uli	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ	416
Ибрагимов Мансур Ахметович	
ОПТИМИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ В УСЛОВИЯХ ПОСТРОЕНИЯ НОВЫХ ЦЕПЕЙ ПОСТАВОК	421
Маннапова Феруза Фахриддин кызы	
О'ЗБЕКISTON RESPUBLIKASIDA ISLOM MOLIYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH VA INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	428
Isroilov Obid Olimjonovich	
OZIQ-OVQAT BOZORI KON'YUNKTURASINI BAHOLASHDA KO'P OMILLI REGRESSIYA MODELINING SAMARADORLIGI	433
Abduraxmonov Adxamjon Sultonboyevich	



AHOLI TURMUSH TARZINI YAXSHILASHNING ISTIQBOLLARI.....	438
Djuraeva Didora Sobirjonovna	
ZAMONAVIY MOLIVAVIY INFRATUZILMANING INSTITUSIONAL ASOSLARI: TO'LOV TIZIMLARI NAZARIYASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	441
Toshniyozov Sherali Kamoliddinovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI MENEJMENT VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	449
Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna	
CORPORATE GOVERNANCE, FDI, AND URBANIZATION IN THE GREEN ECONOMIC TRANSFORMATION OF UZBEKISTAN	454
Ablaeva Valentina	
FEMALE ENTREPRENEURSHIP AND MICRO-ENTERPRISE DEVELOPMENT	460
Dilafuz Kuchkorova	
LEGIRLANGAN PO'LATLARDAN TAYYORLANGAN PROKATLASH JO'VALARINI CHIDAMLILIGINI OSHIRISH UCHUN TERMIK PUXTALASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	466
Saydumarov Botir Muradovich, Berdiyev Darob Murotovich, Tashmatov Ravshan Qobilovich	
SHAMOL TURBINASINING IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATORI O'TKINCHI JARAYONLARINING TAHLILI	471
Bekishev Allabergen Yergashevich, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Yunusov Obidxon Abdivait o'g'li, Jo'rayev Doston Majid o'g'li	
TIJORAT BANKLAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	479
Babaxanova Dildora Rustamovna	
RAQOBAT USTUNLIGIGA ERISHISHDA ZAMONAVIY MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	485
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
JAMOAT AHAMIYATIGA EGA TASHKILOTLAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARI, ULARNING MOLIVAVIY HISOBOTLARI VA AUDITIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	490
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
EFFICIENCY OF IMPROVING THE IT SERVICES EXPORT	494
Uzakov Ortik Shaymardanovich	
CHORVACHILIKDA ILK VETERINARIYA XIZMATI TARIXI: QADIMGI O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	499
Sayfudinova Djamila Badridinovna	
AHOLINI IJTIMOYIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHGA BAG'ISHLANGAN DASTLABKI ILMIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING TAHLILI	503
Xamroyev Anvar Ashurovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHGA BAG'ISHLANGAN DASTLABKI ILMIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING TAHLILI



Xamroyev Anvar Ashurovich

Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: anvarashurovich123@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarish amaliyotiga oid iqtisodiy fan doirasida shakllangan dastlabki ilmiy qarashlar tahlil qilinadi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, boshqaruv, tizim boshqaruvi, aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarish, keng qamrovli boshqaruv, maqsadli ijtimoiy himoya boshqaruvi.

Abstract. The article analyzes the early scientific views formed in economic science regarding the practice of managing the social protection system of the population and identifies their specific characteristics.

Keywords: social protection, management, system management, management of the social protection system of the population, comprehensive management, targeted social protection management.

Аннотация. В статье проводится анализ первых научных взглядов, сформировавшихся в экономической науке и направленных на практику управления системой социальной защиты населения, а также выявляются их характерные особенности.

Ключевые слова: социальная защита, управление, системное управление, управление системой социальной защиты населения, комплексное управление, целевое управление социальной защитой.

KIRISH

Jahon xo'jaligida bozor iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi mamlakatda aholining turli ijtimoiy guruhlari, jumladan, daromadi past bo'lgan ehtiyojmand qatlamlarining davlat tomonidan kafolatlangan turmush farovonligi darajasida yashashini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish va uni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish zaruriyatini kuchaytirmoqda. Mazkur jarayon har qanday milliy iqtisodiyot miqyosida strategik ahamiyat kasb etuvchi hamda bir vaqtning o'zida nazariy va amaliy jihatdan dolzarb muammolar qatoridan o'rin oladi.

Shu bilan birga, bugungi kunda milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlarida innovatsion va raqamli texnologiyalardan keng foydalanilishi mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan talabning qisqarishiga olib kelmoqda. Natijada o'rta ma'lumotga ega aholining ayrim qatlamlari o'rtasida ishsizlik muammosi kuchayib bormoqda. Bu esa mamlakatlarda amal qilayotgan aholini ijtimoiy himoyalash tizimlarining zamonaviy boshqaruv usullarini ishlab chiqish hamda uning tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq masalalarning yanada dolzarblashishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan liberal iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarga ustuvor ahamiyat berilayotgani mamlakatda amal qilayotgan ijtimoiy himoya tizimini boshqarish amaliyotini tubdan takomillashtirish zaruratini yanada oshirmoqda. Shu sababli jahon xo'jaligida turli iqtisodiy

rivojlanish bosqichlarida aholini ijtimoiy himoyalash tizimining amal qilishiga oid nazariy yondashuvlarni tahlil qilish orqali O'zbekistonning hozirgi rivojlanish sharoitida ushbu tizim boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, bunday tadqiqotlar asosida aholini ijtimoiy himoyalashning nazariy asoslari va ularning mamlakat sharoitida amal qilish xususiyatlariga ham baho berish imkoniyati yaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarishda markazlashgan boshqaruv elementlaridan bozor iqtisodiyoti sharoitida foydalanishning samarali yo'nalishlari C. Bason¹ tomonidan o'rganilgan. D. Gasper² esa aholini ijtimoiy himoyalash tizimini tashkil etish va uni boshqarishda ijtimoiy hamda siyosiy nazariyalar o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlashning ustuvor jihatlarini tadqiq etgan.

Yaqin xorijlik olim L. V. Matraeva³ tomonidan aholini ijtimoiy himoyalash tizimi faoliyatida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) loyihalarini amalga oshirishning samarali yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. M. V. Kudina⁴ esa aholini ijtimoiy himoyalash tizimida faoliyat yurituvchi institutlar va tashkilotlar o'rtasida hamkorlik munosabatlarini kuchaytirish orqali tizimdagi tarkibiy o'zgarishlar samaradorligini oshirish yo'nalishlarini o'rganib chiqqan.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarishda ijtimoiy yordam dasturlarini moliyalashtirish bilan bog'liq masalalar mahalliy iqtisodchi B. Sh. Xusanov⁵ tomonidan tadqiq etilgan. Shu bilan birga, B. B. Baxtiyrov⁶ mamlakatda amal qilayotgan aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini o'rganib, uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqqan. M. N. Umurzakova esa aholini ijtimoiy himoyalash tizimini moliyalashtirishda sug'urta mexanizmlarini amaliyotga joriy etishning ustuvor yo'nalishlarini tadqiq qilgan.

Umuman olganda, iqtisodiy fanda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada chuqur o'rganilmagan. Shu sababli mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati ortib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy hamda selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarga ko'ra, jahon xo'jaligida bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarish amaliyotiga bag'ishlangan dastlabki ilmiy-nazariy qarashlarning shakllanishi XIX asr oxiri – XX asr boshlaridan boshlangan. Bu jarayonda klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda ushbu yo'nalishga oid qator ilmiy fikrlar ilgari surilgan.

Jumladan, A. Smit tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy qarashlarda bozor iqtisodiy munosabatlari amal qilishi sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvining cheklanganligi, mamlakat fuqarolari uchun individual erkinliklarning kafolatlanishi hamda jamiyat hayotini tartibga soluvchi ijtimoiy qoidalar muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan. Mazkur yondashuvga ko'ra, kambag'allik darajasini kamaytirishda aholining daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilma tizimini takomillashtirish hamda fuqarolarning o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalanishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy jihatdan muhtoj aholi guruhlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida minimal kafolatlangan vaqtinchalik ijtimoiy yordam dasturlarini joriy etish zarurligi ham ta'kidlanadi⁷.

1 Bason C., & Austin R.D. Design in the Public Sector: Toward a Human Centred Model of Public Governance. *Journal of Public Management Review*, Vol. 24, Issue 11, 2022. – pp. 1727-1757.

2 Gasper D. Amartya Sen as a Social and Political Theorist – on Personhood, Democracy, and 'Description as Choice'. *Journal of Global Ethics*, Vol. 19 (3), 2023. – pp. 1-24. DOI: 10.1080/17449626.2023.2255600.

3 Matraeva L.V., Konov A.A., Belyak A.V., Erokhin S.G., Vasyutina E.S. Public Private Partnership in Social Sphere: Models Review. *International Journal of Economics and Financial Issues*, Vol. 6 (S8), 2016. – pp. 127-136.

4 Kudina M.V., Sukhareva M.A. Human Capital Theory: Systematization of Approaches Based on the Criteria for the Relationship of its Development with Structural Changes in the World Economy. *Journal of Intellect, Innovations, Investments*, Vol. 5(5), 2020. – pp. 59-71.

5 Хусанов Б.Ш. Проблемы регулирования финансового механизма социального обеспечения населения: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук: - Т.: 2011, 25 с.

6 Бахтиёров Б.Б. Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимининг иқтисодий механизмини такомиллаштириш йўналишлари: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати 2020 – 29 б.

7 Arevuo M. Adam Smith's Moral Foundations of Self-Interest and Ethical Social Order. *Economic Affairs*, Vol. 43, 2023. – pp. 372-387.



A. Smitning ilmiy qarashlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash tizimini tashkil etish va boshqarishda davlat aralashuvining cheklanganligi, “ko‘rinmas qo‘l” tamoyili asosida shaxsiy manfaatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va unga xos axloqiy me‘yorlar hamda tabiiy erkinlik prinsiplari muhim o‘rin egallashi qayd etilgan⁸.

Iqtisodchi olim tomonidan bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarish amaliyotiga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlar quyidagi yo‘nalishlarda izohlanadi.

Davlat aralashuvining cheklanganligi.

Mazkur xususiyat bozor iqtisodiy munosabatlarining erkinlik tamoyiliga asoslanishi bilan izohlanadi. Bunda davlatning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi roli ham ma‘lum darajada cheklangan bo‘lishi lozimligi ta‘kidlanadi. Chunki ayrim holatlarda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida shaxsiy manfaatlarining ustuvorligi ijtimoiy himoya tizimining samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli davlat aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarishda asosan minimal ijtimoiy kafolatlar ta‘minlashga qaratilgan mexanizmlardan foydalanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda fuqarolar o‘z turmush farovonligini oshirish uchun individual tashabbus va mehnat faoliyatiga tayangan holda harakat qilishlari zarur bo‘ladi.

“Ko‘rinmas qo‘l” tamoyili asosida shaxsiy manfaatlarining o‘zaro bog‘liqligi.

Ushbu xususiyat davlat aralashuvining cheklanganligi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy iqtisodiyot miqyosida shaxsiy manfaatlarining uyg‘unlashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Bunda fuqarolar o‘z turmush darajasini oshirish maqsadida kasbiy faoliyat, tadbirkorlik yoki boshqa daromad manbalari orqali iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishga intiladilar. Natijada bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat jarayonida muvaffaqiyatga erishgan shaxslar yuqori turmush darajasiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, iqtisodiy jihatdan zaifroq qatlamlar davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi va ularga o‘z iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va axloqiy me‘yorlar.

Mazkur xususiyat aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarish jarayonida jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ijtimoiy adolat va axloqiy qadriyatlarining shakllanishi bilan bog‘liqdir. Bu jarayonda ijtimoiy himoya tizimining tashkiliy mexanizmi jamiyat a‘zolarining ma‘naviy qadriyatlari, an‘analari va ijtimoiy qarashlariga mos ravishda shakllanishi zarur hisoblanadi.

Tabiiy erkinlik prinsipi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar ko‘pincha shaxsiy manfaatlar asosida erkin shakllanadi. Biroq bunday erkinlik ayrim ijtimoiy tengsizliklar va salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli aholini ijtimoiy himoyalash tizimi doirasida bunday salbiy oqibatlarning ta‘sirini yumshatish hamda ularning oldini olishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bunda minimal turmush farovonligi standartlarini belgilash va ularni ta‘minlash ijtimoiy himoya tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Klassik iqtisodiy maktab asoschilari tomonidan bozor iqtisodiy munosabatlari sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarishda davlatning minimal darajadagi ishtirokiga ustuvor ahamiyat berilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, davlat tomonidan aholining minimal turmush darajasini ta‘minlash asosiy vazifa sifatida qaralgan. Shu bilan birga, tizimning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi amal qilishida xayriya faoliyati hamda jamiyatning yuqori qatlamiga mansub mulkdorlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etgan.

Klassik iqtisodiy nazariyalarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarishda davlat aralashuvi orqali aholining minimal turmush darajasini ta‘minlash hamda ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan g‘oyalar uchraydi. Mazkur g‘oyalarga o‘xshash qarashlar marksistik iqtisodiy maktab vakillari hisoblangan K. Marks⁹ va F. Engels¹⁰ ilmiy tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan.

Marksistik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy qarashlarga ko‘ra, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishi va aholining barcha qatlamlari uchun davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatilishi ustuvor vazifa sifatida qaraladi¹¹. Jumladan, davlat tomonidan markazlashgan holda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarish natijasida jamiyatning turli ijtimoiy guruhlariga mansub aholi ehtiyojlarini samarali qondirish imkonini beruvchi ijtimoiy

8 Smith A. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. Edited by S.M. Soares. MetaLibru Digital Library, 2007. – 743 pages.

9 Harris A.L. The Social Philosophy of Karl Marx. Ethics an International Journal of Social, Political, and Legal Philosophy. Vol. 58, No. 3, Part , April, 1948. – pp. 1-42. URL: www.jstor.org/stable/2379097

10 Medvedyuk S., Govender P., Raphael D. The Reemergence of Engels’ Concept of Social Murder in Response to Growing Social and Health Inequalities. Social Science & Medicine, Vol. 289, Nov. 2021. – pp. 1-12 DOI: 10.1016/j.socscimed.2021.114377

11 Lawson T. Social Relations, Social Positioning Theory and Marx. Cambridge Journal of Economics, Vol. 49, Issue 6, Nov., 2025. – pp. 1215-1254

siyosat shakllantirilishi zarur deb hisoblanadi. Bunda mavjud iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash hamda davlat tomonidan boshqariladigan ijtimoiy farovonlikka oid ehtiyojlarni aniq belgilab olish muhim hisoblanadi¹².

Tahlillarga ko'ra, marksistik ilmiy-nazariy qarashlarda klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ishlab chiqilgan kapitalistik jamiyat sharoitidagi ijtimoiy himoya tizimidan tubdan farq qiluvchi yondashuv ilgari surilgan. Ushbu yondashuv jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirishga qaratilgan markazlashgan ijtimoiy himoya tizimini shakllantirish va boshqarish bilan tavsiflanadi. Bu esa marksistik iqtisodiy qarashlarda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarish amaliyoti asosan markazlashgan yoki nisbatan yopiq iqtisodiy tizimlar sharoitida keng qo'llanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shuningdek, iqtisodiy fanda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi boshqaruvi amaliyotiga bag'ishlangan dastlabki nazariy yondashuvlar qatoriga Bismark modeli ham kiradi. Mazkur modelga ko'ra, tizim boshqaruvining iqtisodiy mexanizmi sug'urta tamoyiliga asoslangan davlat siyosatini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bunda aholini ijtimoiy himoyalash tizimida ijtimoiy sug'urta institutlarining shakllanishi tizimning tashkiliy mexanizmini takomillashtirishga xizmat qiladi¹³.

Bismark modeliga asoslangan ijtimoiy himoya tizimini boshqarishda davlat tizim faoliyatini qat'iy nazorat qiladi hamda uning amal qilishi bilan bog'liq xarajatlar va standartlar tizimini ishlab chiqadi¹⁴. Shu bilan birga, davlat aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlarini nazorat qilish va tizimni moliyalashtirishda keng qamrovli ijtimoiy sug'urta mexanizmlaridan foydalanadi¹⁵.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, iqtisodiy fanda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarish bilan bog'liq dastlabki nazariy yondashuvlar XIX asr oxiri – XX asr boshlariga qadar bo'lgan davrda shakllangan. Ushbu yondashuvlar qatoriga klassik va marksistik iqtisodiy maktab vakillari hamda Bismark tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy qarashlar kiradi.

Mazkur ilmiy qarashlar evolyutsiyasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy himoya tizimini boshqarishda davlat ishtiroki darajasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichlariga mos ravishda o'zgarib borgan. Xususan, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat tomonidan fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlar va kafolatlar tizimining bosqichma-bosqich kengayib borishi aholi turmush farovonligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan qaraganda, aholini ijtimoiy himoyalash tizimini boshqarish amaliyotida davlatning roli jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni ta'minlash, minimal turmush darajasi standartlarini kafolatlash hamda aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali namoyon bo'lib, ijtimoiy siyosatning muhim institutsional yo'nalishlaridan biri sifatida shakllangan, degan xulosaga kelish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bason C., Austin R. D. Design in the Public Sector: Toward a Human-Centred Model of Public Governance. *Public Management Review*, Vol. 24, Issue 11, 2022. – pp. 1727–1757.
2. Gasper D. Amartya Sen as a Social and Political Theorist: On Personhood, Democracy, and “Description as Choice”. *Journal of Global Ethics*, Vol. 19, Issue 3, 2023. – pp. 1–24. DOI: 10.1080/17449626.2023.2255600.
3. Matraeva L. V., Konov A. A., Belyak A. V., Erokhin S. G., Vasyutina E. S. Public-Private Partnership in the Social Sphere: Models Review. *International Journal of Economics and Financial Issues*, Vol. 6 (S8), 2016. – pp. 127–136.
4. Kudina M. V., Sukhareva M. A. Human Capital Theory: Systematization of Approaches Based on the Criteria for the Relationship of its Development with Structural Changes in the World Economy. *Journal of Intellect, Innovations, Investments*, Vol. 5 (5), 2020. – pp. 59–71.
5. Xusanov B. Sh. Problemy regulirovaniya finansovogo mexanizma sotsialnogo obespecheniya naseleniya. *Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati*. – Toshkent, 2011. – 25 b.
6. Baxtiyorov B. B. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. *Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati*. – Toshkent, 2020. – 29 b.
7. Arevuo M. Adam Smith's Moral Foundations of Self-Interest and Ethical Social Order. *Economic Affairs*, Vol. 43, 2023. – pp. 372–387.
8. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. Edited by S. M. Soares. – MetaLibru Digital Library, 2007. – 743 p.
9. Harris A. L. The Social Philosophy of Karl Marx. *Ethics: An International Journal of Social, Political, and Legal Philosophy*, Vol. 58, No. 3, Part 1, April 1948. – pp. 1–42. URL: <https://www.jstor.org/stable/2379097>
10. Medvedyuk S., Govender P., Raphael D. The Reemergence of Engels' Concept of Social Murder in Response to Growing Social and Health Inequalities. *Social Science & Medicine*, Vol. 289, November 2021. – pp. 1–12. DOI: 10.1016/j.socscimed.2021.114377.

12 Kinder T. *Marx and Public Services: Textbook*. Springer, 2025. – 556 pages.

13 Timothy G., Jochen S. The introduction of Bismarck's social security system and its effects on marriage and fertility in Prussia, Ruhr Economic Papers, No. 901, RWI - Leibniz-Institut für Wirtschaftsforschung, Essen, 2021. – 34 pages.

14 Bismarck Model Social Insurance. [Online Resource] URK: <https://esg.sustainability-directory.com/area/bismarck-model-social-insurance/>

15 Social Insurance (Bismarck) Model. [Online Resource] URL: <https://pchhealth.global/glossary/social-insurance-bismarck-model>



11. Lawson T. Social Relations, Social Positioning Theory and Marx. Cambridge Journal of Economics, Vol. 49, Issue 6, November 2025. – pp. 1215–1254.
12. Kinder T. Marx and Public Services. – Springer, 2025. – 556 p.
13. Timothy G., Jochen S. The Introduction of Bismarck's Social Security System and its Effects on Marriage and Fertility in Prussia. Ruhr Economic Papers, No. 901. – Essen: RWI – Leibniz Institute for Economic Research, 2021. – 34 p.
14. Bismarck Model Social Insurance. [Online resource]. URL: <https://esg.sustainability-directory.com/area/bismarck-model-social-insurance/>
15. Social Insurance (Bismarck) Model. [Online resource]. URL: <https://pchhealth.global/glossary/social-insurance-bismarck-model>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100